O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
Sharof Rashidov nomidagi
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
Geografiya va ekologiya fakulteti

"TASDIQLAYMAN"
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil "__"_____

Ro'yxatga olindi:
№ BD 60530200
2024 yil "10 07"

TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000- Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200 – Geografiya

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O’quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
GM1706	2027-2028	7	6

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O’zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi	76	104	180

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – “Talablarga tabiiy geografik fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, ularning turlari va xususiyatlari va zamonaviy ta’lim vositalarini qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llariga oid bilimlar berishdan iboratdir. Fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish. Geografiya fanlaridan darslarni o`tishda shu soha bo‘yicha to‘la qonli bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga o‘z mazmuni bilan xizmat qiladi. **Fanning vazifasi** – geografiya metodikasida talablar, ya’ni o‘quvchilarga geografiyadan qanday bilimlar berishni aniqlash, o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish yo‘llarini, ta’lim jarayonini uyushtirish shakllarini aniqlash va har bir shaklga mos metod, o‘quv jarayonlari, sinfdan tashqari ishlarini belgilashni o‘rgatishdan iborat. Shuningdek o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi, ularning tarbiyalanishi, ta’lim jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, sinalgan o‘qitish metodlarini takomillashtirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish yo‘llarini izlash, geografiya ta’limi jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish, yangi pedagogik texnologiyalarni geografiya ta’limida qo‘llash, geografik bilimlar, tushunchalar hajmini belgilash, bilim, tushuncha, ko‘nikmalarni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, sinfdan tashqari ishlar mazmunini ishlab chiqish va belgilash hamda boshqalarni o‘rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Tabiiy fanlar va geografiya o`qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari, geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish fani maqsadi, vazifalari va mazmuni.** "Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi" fani, predmeti, tadqiqot ob'ekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.
M2	**O'zbekistonda geografiya ta'limining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.** Geografiya o'qitish metodikasi faning shakllanish tarixi. Geografik bilimlar mustahkamlashda sayyohlarning o'rni.
M3	**Qomusiy olimlarning geografiya sohasidagi ta'limotlari.** Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Zahriddin Muhammad Boburning geografiya sohasidagi ta'limotlari.
M4	**Chor Rossiyasi davrida Turkiston o'lkasida geografiya ta'limi rivoji.** O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgunga qadar bo'lgan o'qitish tizimi. Mustamlaka davrida geografiya o'qitish metodikasi rivojlanish "Rus-tuzem" maktabalarining ochilishi va ularda geografiyaning o'qitilishi. 1900 yillarda ochilgan "Yangi usul" maktablari va ularda geografiya fanining o'qitilishi.
M5	**Sho'rolar davrida O'zbekistonda geografiya ta'limi**. Karimiyning geografiya darsligi. 1900-1915 yillarda yaratilgan geografiya darsliklari. Muhammad Amin Karimiyning 1914-yilda chop etilgan "Jo'g'rofiyai riyoziy" risolasining ahamiyati. A.Donish, Furqat, M. Behbudiy, Xoji Yusuf Xay'atiy, Avloniylarning geografiya ta'limiga qo'shgan xissalari. Sobiq Ittifoqda o'zbek maktablarida geografiya ta'limi. Mustaqillik yillarida geografiya ta'limidagi tub o'zgarishlar. 11yillik ta'lim, akademik litsey, kollejlarda geografiya ta'limidagi o'zgarishlar. Mustaqillik yillarida yaratilgan geografiya darsliklari. Horijda geografik ta'lim.
M6	**Xorijiy davlatlarda geografiya ta'limining xususiyatlari.** Xorijiy davlatlarda geografiya ta'limi. Geografiya ta'limining jahon davlatlaridagi o'rni. Geografiya barcha o'quvchilar o'rganishi majburiy bo'lgan fanlar qatorida bo'lgan mamlakatlar
M7	**Tabiiyot va geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlar tasnifi.** Geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlarning o'rni va roli. Bilim olish manbalariga ko'ra metodlar tasnifi. Didaktik maqsadlarga ko'ra metodlar tasnifi: xulosa chiqarishga ko'ra metodlar tasnifi. Fikrlash

	faoliyatiga ko‘ra metodlar tasnifi. Izohli-ko‘rgazmali, repreduktiv, muammoli bayon, qisman izlanuvchan, tadqiqot metodlari. Vaqt o‘tishi bilan metodlarning o‘zgarishi. Metodlarga qo‘yiladigan talablar.
M8	**Tabiiyot va geografiya ta’limida darslik va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash.** Darslik bilan ishlash bilim olishning manbai ekanligi. Darslik bilan ishlash turlari; darslik matni bilan ishlash, reja tuzish; darslikdagi rasmlar, xaritalar, jadvallar, chizmalar bilan ishlash; darslikdagi mashq, topshiriqlar bilan ishlash. Qo‘shimcha adabiyotlardan mustaqil bilim olish yo‘llari.
M9	**Og‘zaki bayon usullari va xarita bilan ishlash.** Hikoya tushuntirish, suhbat, ma’ruza va o‘qib berish kabilar. Ularni farqlari, xususiyatlari, turlari. Suhbat. Savol-javob (katexezik) suhbat. Keng ko‘lamdagi (eviristik) suhbat. Savol-javoblarga qo‘yiladigan talablar. Didaktik maqsadiga ko‘ra turlari. Geografiya ta’limida qo‘llaniladigan xaritalarga tasnif. Xaritalarni tushunish, bilish, o‘qish va solishtirish. Tabiiy va iqtisodiy xaritalarni o‘qish . Globus bilan ishlash metodlari.
M10	**Tabiiyot va geografiya ta’limini uyushtirishning shakllari.** Dars. O‘quvchilarning mustaqil ishlari. Maslahatlar uyushtirish. Fakultativ mashg‘ulotlar, ekskursiyalar. Uyga vazifaning ta’limda tutgan o‘rni va roli. Tabiiyot va geografiya ta’limida dars. Tabiiyot va geografiya darslarining ta’limida tutgan o‘rni. Darsga qo‘yiladigan talablar. Darsning turlari. Aralash dars. Yangi mavzuni o‘rganish darsi. Ko‘nikma va malakalarni hosil qilish darsi. Mustahkamlash darsi. Takrorlash darsi.
M11	**Tabiiyot va geografiya darslarini rejalashtirishning ta’limda tutgan o‘rni va roli.** O‘qituvchi ish faoliyatida rejalashtirishning zarurligi. Rejalashtirishga qo‘yiladigan talablar. Kalendar, mavzuli rejalar. Darslarni rejalashtirish. Tabiiyot va geografiya darslarining tahlili. Tahlil qilishning zarurligi, ahamiyati. Dars tahlilining maqsad va vazifalari. Tabiiyot va geografiya darslarini tahlil qilish tartibi. Tahlilga qo‘yiladigan talablar, tahlil bosqichlari.
M12	**O‘quv ekskursiyalari.** Tabiiyot va geografiya ta’limida ekskursiyaning o‘rni va roli. Geografik bilim, tushunchalarni shakllantirishda ekskursiyaning ahamiyati. Ekskursiya o‘tkazishga tayyorgarlik bosqichlari. O‘quv va o‘lkashunoslik ekskursiyalari. Tabiiy geografik ekskursiyalar. Iqtisodiy geografik ekskursiyalar.
M13	**O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tekshirish va baholash.** O‘quvchilar bilimini baholashning zarurligi. Baholash turlari. Testlarning o‘rni va roli. Og‘zaki so‘rash. Yozma tekshirish. Amaliy tekshirish

	usullari. Geografiya ta'limida bilimlarni yakka, yoppasiga tekshirish usullari. Bilim va ko'nikmalarni AKT larda tekshirish.
M14	**Tabiiyot va geografiya ta'lim jarayon qismlari.** *Bilim.* Tabiiyot va geografiya ta'limida bilim, tushuncha, sabab-oqibat, qonuniyat, nazariya, tasavvur aloqadorligi. Bilimlarning turlari. Nazariy va emperik bilimlar. Tabiiy geografik tushunchalar. Iqtisodiy geografik tushunchalar. Aniq va mavhum tushunchalar. Yakka tushunchalar. Umumiy tushunchalar. Tushunchalarni shakllantirish bosqichlari. Tushunchalarni shakllantirishda xilma-xil ta'lim vositalaridan foydalanish. *Ko'nikma va malaka.* Tabiiyot va geografiya ta'limida ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Geografik ko'nikma va malakalar mohiyati, mazmuni. Ko'nikmalarga va malakalarga xos bo'lgan belgilar. Ta'limda ko'nikmalarning o'rni va roli. Ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi. Tabiiy geografik ko'nikmalar. Iqtisodiy geografik ko'nikmalar. Ko'nikmalarni shakllantirishda ta'lim vositalari. Ko'nikmalarni shakllantirishda topshriqlar mazmuni. Geografik xaritalar ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishda muhim vosita ekanligi. Ko'nikmalarni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlarning o'rni.
M15	**Tabiiyot va geografiya maydonchasi va xonasi.** Geografik maydonchaning o'quv jarayonidagi ahamiyati va tuzilishi. Geografik maydoncha: astronomik, meterologik, gidrologik, geomorfologik kuzatish olib boriladigan joy. Tabiiyot va geografiya xonasining o'quv jarayonidagi o'rni. Tabiiyot va geografiya xonasi-o'quv qurollari, ta'limning texnika vositalaridan oqilona joylashtirilgan faqat tabiiyot va geografiyadan dars o'tiladigan xona.
M16	**Tabiiyot va geografiya ta'limi vositalari.** O'quv vositalari tasnifi. Tabiiy ob'ektlarning tasviri. Predmet va hodisalarning shartli belgilar bilan ifodalangan tavsifi va tasviri: verbal; kartografik; chizma-statistik; chizma sxematik. Priborlar. Tabiiyot va geografiya xonasi. O'qitishning texnik vositalari. Texnika vositalaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar. AKT dan tabiiyot va geografiya ta'limida foydalanish.
M17	**O'quv-ko'rgazmali qo'llanmalarni tasniflash.** Tabiiyot va geografiya ta'limida rasmlardan foydalanish. Diagramma va grafiklar bilan ishlash. Ularning turlari. Jadvallar bilan ishlash. Modellar bilan ishlash. Tog' jinslari va gerbariylar bilan ishlash. Statistika materiallari bilan ishlash. Ko'rgazmali qo'llanmalarga qo'yiladigan talablar.
II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Maktab geografiya kursi mazmuni, maqsadi. DTS talablarining maqsad va vazifalari tahlil qilish, o'rganish. Maktab geografiya kursi dasturlari

	bilan tanishish, ularni tahlil qilish va o‘rganish
A2	O‘quvchilar bilim ko‘nimalarini nazorat qilish va baholash usullari bilan tanishish
A3	Geografiya ta’limi metodlari, mashg‘ulot mazmuniga ko‘ra o‘qitish metodlarini tanlashni o‘rganish
A4	Dars tiplari, dars ishlanmasini tuzishni o‘rganish
A5	Dars tahliliga qo‘yiladigan talablar
A6	Muammoli ta’lim metodi bilan amaliy tanishish
A7	Geografiya darslarida “Keys stadi” metodidan foydalanish
A8	Maktab geografiya atlasi bilan tanishtirish.
A9	Karta va globus bilan ishlash metodikasi
A10	Geografik rasmlar bilan ishlash
A11	Noan’anaviy darslar bo‘yicha mashqlar o‘tkazish
A12	Tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar tayyorlash
A13	Ta’limning texnik vositalari, kompyuter, audio, video materiallari bilan ishlash
A14	Telemashg‘ulotlarning ta’limdagi o‘rni. Geografik o‘yin o‘tkazish metodikasi bilan tanishish
A15	Geografiya darslarida rolli o‘yinlarni tashkil etish
A16	Geografik o‘yin o‘tkazish metodikasi bilan tanishish. 6-sinf U Kim? Bu nima? o‘yini
A17	Maktab geografiya ta’limida sinfdan tashqari ishlar.Ekskursiya
A18	Maktab geografiya ta’limida sinfdan tashqari ishlar.Ekskursiya
A19	7-8 sinf sinov darslari
A20	9- sinf sinov darslari
A21	10-sinf sinov darslari

III. **Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
“Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi**”** fani bo‘yicha mustaqil ta’lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

Mustaqil ta’lim mavzulari (MT)	
Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi	
MT1	Jadidchilik harakatida ta’lim va tarbiya
MT2	O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi
MT3	Eksperimental-emprik metodlar

MT4	Pisa tadqiqotini o'tkazish va tashkil etish metodiasi
MT5	Geografiya ta'limida kompetensiyalar
MT6	Xorijda geografiya ta'limi
MT7	Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi
MT8	Geografiya darsligi bilan ishlash
MT9	Tabiiy geografiya boshlang’ich kursi
MT10	Geografiya darslarining va ularning turlari
MT11	O‘quv ekskursiyalar va ularning turlari
MT12	Geografiya ta’limida kreativ metodlar
MT13	O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursi

“Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Jadidchilik harakatida ta’lim va tarbiya, O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Eksperimental-emprik metodlar, Pisa tadqiqotlari haqida umumiy tavsiflar, Geografiya ta'limida kompetensiyalar, Innovatsion ta’lim texnologiyasi turlari haqida ma’lumotlar berib ular haqida ham o‘quvchilar bilim ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: Talabalar «Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi» fanini o`rganish jarayonida quyidagilarni bajara olishi lozim: -“Tabiiy fanlar va geografiya o'qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: - fanning asosiy manbalari, g‘oya, tushuncha, nazariya va qonuniyatlar haqida bilimlarni ***bilishi kerak***; Maktab geografiya xonasi va geografiya maydonchasini tashkil etish, o‘quv qurollarini tayyorlash, ta’limning texnik vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish, Dars va uning tarkibiy qismlari, darsning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini ishlab chiqish, darsga qo‘yiladigan talablar, geografiya darslarining tuzilishi, dars tiplari va ulardan foydalanish yo‘llari va darslarni rejalashtirishga oid masalalarini bilishi va ulardan foydalana olishi ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi*** kerak; - fanga oid statistik ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil qilish xamda tegishli xulosalar chiqarish ***malakalariga ega bo‘lishi*** kerak.

4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. Asosiy adabiyotlar:

1. S.N.Abduvoxidov, Z.A.Ganiyev. geografiya ta'limi metodikasi. - Samarqand, 2021. – 328 b.
2. H.Vaxobov, N.R.Alimqulov, N.B. Sultanova. Geografiya o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2020. – 227 b.
3. Таможняя Е. А., Смирнова М. С.,Душина И. В. Методика обучения географии:. - Москва : Издателство Юрайт, 2016. - 321 с.
4. Н. А. Иванищева. Методика обучения географии. Оренбург, 2017. – 96 с.
5. Г.И. Петрович. Методика преподавания географических дисциплин. Издатель: БГУ, 1998. – 90 с.
6. Қурбонниёзов Р. География таълими методикаси. -Урганч, 2001. 213 б.
7. Мўминов О. География таълими методикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1986. 208 б.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Абдиева З.А. География фанида ноанъанавий усуллардан фойдаланиш Ўқув услубий қўлланма. Навоий, 2008. 61 б.
2. Петрова, Е. Ю. Теория и методика обучения географии: учебно-методический комплекс для студентов географических специальностей педагогических университетов / Е. Ю. Петрова. – Томск : Издательство ТГПУ, 2010. – 168 с.
3. Швецова, Л. В. Методика преподавания географии : учебное пособие / Л.В. Швецова ; Алтайский государственный университет. – Барнаул : АлтГУ, 2021. – 146 с.

Axborot manbalari (saytlar):

4. www.geografiya.uz
5. www.ziyonet
6. www.tdpu.uz

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan**.**

8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **Z.A.Ganiyev**- SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti **D.X.Joraqulova** – SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** **X.T.Nazarov** – SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti (tel: (93) 346-65-52 **F.A.Xamroyeva** –O'zbekiston Finlandiya pedagogika institute, Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Xaydarov S.A.

Kafedra mudiri: **B.B.Eshquvvatov**

Fakultet dekani: **S.B.Abbasov**

Sharof Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**